

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XOR TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISHNING UMUMNAZARIY MASALALARI

Haqqulov Sherzod

San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

sherzodhaqqulov71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15698601>

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda, umumta'lim maktablarida xor to'garaklarni tashkil etishning umumnazariy masalalari yoritib berilgan bo'lib, unda madaniyat va san'at muassasalari, maktabdan va sinfdan tashqari tashkil etilayotgan xor to'garaklari o'quvchi-yoshlarning musiqiy mafkurasini shakllantirish va ularni ongi-shururiga singdirish xususida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, madaniyat, qadriyat, milliy tafakkur, urf-odat, tugaraklar, xor jamoalari, san'at, mafkura, vosita, badiiy tugaraklar, musiqiy tugaraklar, teatr, muziy.

ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ХОРОВЫХ КРУЖКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В данной статье освещены общетеоретические вопросы организации хоровых кружков в общеобразовательных школах, в которых за формирование музыкальной идеологии учащихся и молодежи отвечают учреждения культуры и искусства, хоровые кружки, организуемые вне школы и класса. объяснили, чтобы внедрить их в их сознание.

Ключевые слова: Музыка, культура, ценности, национальная мысль, традиция, хоры, хоры, искусство, идеология, среда, художественные хоры, музыкальные хоры, театр, музей.

GENERAL THEORETICAL ISSUES OF ORGANIZING CHORAL CLUBS IN SECONDARY SCHOOLS

Abstract: In this article, the general theoretical issues of organizing choral clubs in secondary schools are highlighted, in which cultural and art institutions, choral clubs organized outside of school and classroom are responsible for forming the musical ideology of students and young people. It was explained in order to inculcate them in their consciousness.

Key words: Music, culture, value, national thought, tradition, choirs, choirs, art, ideology, medium, artistic choirs, musical choirs, theater, museum.

KIRISH. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etishda, xor asarlarini o'rgatish usullari, maktab va maktabdan tashqari madaniy va marifiy muassasalar shu jumladan badiiy to'garaklar o'quvchilarning milliy mafkurasini shakllantirish va ongiga singdirishdagi imkoniyatlarini beradigan asosiy vositalardan biri sanaladi. Ayniqsa, madaniyat va san'at muassasalari, maktabdan va sinfdan tashqari tashkil etilayotgan xor to'garaklari o'quvchi- yoshlarning musiqiy mafkurasini shakllantirish va ularni ongi-shururiga singdirishda katta imkoniyatlar ishigini ochuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor bilan ishlash uslublari kutubxona, teatr, kulublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan ham keng foydalanish o'quvchi- yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni dunyoqarashini

shakllantirishga xizmat qiladigan, ruhiy, ma'naviy ozuqa beradigan tadbirlar majmuasi hisoblansada, ikkinchidan, ularni ijodkorligini shakllantirishga xizmat qiladigan hamda kasbga yo'naltirishga ilxomlantiradigan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Mustaqil davlatimiz ravnaqiga rahna soluvchi har-xil diniy aqidaparastlik g'oyalari, axloqsizlik, "universal demokratik", egotsentrizm¹⁵, giyohvandlik kabi illatlarni keltirib chiqaruvchi buzg'unchi g'oyalar va ta'didlar mafkurasidan uzoq holda tarbiyalanish sharoitlarini yuzaga keltiradi. Yanada to'g'riroq qilib aytganda har qaysi o'quvchining tom ma'nodagi erkin inson bo'lib o'qishiga qaratilgan uning aynan ruhiy dunyosini izidan chiqarish maqsadini ko'zda tutgan mafkuraviy g'oyaviy va infarmatsion xurujlarni nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu muammolarning yechimi sifatida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli, foydali o'tkazish uchun maktabdan tashqari ta'lim jarayonini bugungi kun talablari darajasiga ko'tarishda aynana xor asarlaridan foydalalanish o'ta muhim ahamiyat kasb etishi mazkur tadqiqot jarayonida bir qator o'z isbotini topdi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklart asosida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish shaxs ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi, shaxs hulqini boshqarishga, shakllantirishga yordam beradigan, shaxsning ko'p qirrali sifati hisoblanib, uning umumiy yetuklik darajasini ifodalaydigan tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi. Bu o'z navbatida, nafaqat turli sifatlarni mavjudligi, balki bo'lmasligi bilan bog'liq holda umuminsoniy fazilatlar mujassamlagan g'oyalar qay darajadali bilan ham bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etishning turli usullari yuzaga kelmoqda. O'quvchi yoshlarning xor asarlari asosida

Egotsentirizm xudbinlik ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa narsani tan olmaslikni anglatadi. Bu illatning insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtai nazaridan jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi. Loqaydlik o'z manfaatni hamma narsadan ustun qo'yish, xudbinlik, shuhratparastlik kabi salbiy odatlar egotsentirizm dardiga duchor bo'lgan odamning asosiy xususiyatlaridir.

O'qitishning samarali usullari oila, maktab, jamoatchilik tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining o'rni juda katta bu masalani ham unutmazlik lozim. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining bu boradagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy havaskorlik bo'yicha maktabdan tashqari tarmoqlar ko'payib bormoqda, bu o'z o'rnida o'quvchi-yoshlarning tarbiyasiga ijobiy ko'mak bersa-da, samaradorlik yetarli darajada bo'lishi bir oz qiyin bo'ladi. "Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa, -deb ta'kidlagan edi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligi asoschisi Islom Karimov, - ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularning yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikirlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat"¹⁶.

NATIJALAR

Bu vazifani amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etish usullarini yanada jonlantirishimiz, o'quvchilarni turli badiiy, kasbiy, musiqi to'garaklarda keng jalb etishimiz shart. Muhtaram Yurtboshimiz SHavkat Mirziyoev bu borada

bejizga o'zlarning tashabbuslari bilan chiqqan emaslar. Chunki, haqiqatdan ham ushbu tashabbus o'quvchi-yoshlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan xor asarlaridan musiqiy mashg'ulotlarni tashkil etishda ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga, ijodkorligini shakllantirishda, kasbga yo'llash mexanizmlaridan biridir. Darhaqiqat, bu o'rinda "Musika" fani ham maktabdan tashqari muassasalardagi badiiy to'garaklarning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki umumiy o'rta maktab ta'limi tizimidan farqli ularoq, xor to'garaklarga o'quvchilar o'z qiziqishlari va ixtiyori bilan keladilar mashg'ulotlarda individual yondoshish imkoniyatlari keng.

Individual yondoshuv printsiplari o'zbek milliy musiqa san'atida azaldan mavjud bo'lgan ustoz-shogird an'analarini o'zida aks ettiradi. Shu bois milliy – musiqa qadriyatlarini o'quvchilar ongiga shakllantirish oson kechadi. Xor musiqiy to'garaklari faoliyati ta'lim ustvorligi, umuminsoniy qadriyatlarini va milliy musiqa durdonalarini o'rganish tamoyillariga asoslangan bo'lishi zarur. Bu o'rinda ilk qadamlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 mayda qabul qilingan "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmonida maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan qarorlarida o'z aksini otopgan edi. Endilikda xukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim tizimida juda katta e'tibor berib, uni yanada takomillashtirishga harakat qilmoqdalar. Bu o'rinda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori qabul qilindi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PQ- 112-sonli Qarorida aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, tsirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va kontsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etish o'quvchilarni faoliyatini qaram olish borasida maktabdan tashqari muassasalar o'z faoliyatlarini "Maktabdan tashqari muassasa to'g'risida"gi nizomga muvofiq amalga oshiradilar. Mazkur nizom asosida ma'alliy xususiyatlarni, o'zining yo'nalishlarini, rivojlanish istiqbollari jamoa

normalari, qoidalar va an'alarini, moddiy texnikaviy ahvolini moliyaviy ta'minotini, faoliyat dasturini hisobga olgan holda har bir maktabdan tashqari muassasada o'z ustavi ishlab chiqiladi. Ustav xalq ta'limining yuqori organi tomonidan tasdiqlanadi. Ustavda maktabdan tashqari muassasalarning maqsad va asosiy vazifalari o'zgartirilishi, o'quvchilar va pedagog xodimlarning huquqlari chegaralanishi mumkin emas.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda umumta'lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim - tarbiya jarayonini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Maktabdan tashqari ta'limning faoliyat doirasi keng qamrovli bo'lib, unda o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha ma'lum imkoniyatlar mavjud va qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab "Musika" o'quv fani bilan bir qatorda o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etilayotgan mashg'ulotlar asosan o'quvchi yoshlarni bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazishlari, ijodkorligini shakllantirish, kasbga yo'naltirish bilan bir qatorda o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan tarbiyalashning quyidagi asosiy vazifalarni hal etilishiga ham xizmat qilishi kerak:

- talaba shaxsining umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etish huquqni ta'minlash, o'quvchi-yoshlarga maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalar berish va mazkur talablar asosida ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga erishish;

- o'quvchi - yoshlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor musiqa to'garaklarni tashkil etish, ular ongida komil insonga xos hislatlar – vatanparvarlik tuyg'ularni shakllantirish orqali ularni turli xil yod g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik;

- yoshlarni xalqimizning urf-odatlarini, madaniyati va davlat tiliga xurmat ruhida tarbiyalash va ularni boshlang'ich kasb xunarga yo'naltirish;

- o'quvchi-yoshlarning qiziqish va e'tijojlariga javob beruvchi ta'lim mazmunini muntazam ravishda ilg'or, milliy va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash;

- o'quvchi-yoshlar hayotining oliy qadryati bo'lgan ma'natga munosabatingi tarbiyalash;

- qo'shimcha ta'lim berish hamda hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi faoliyatga tayyorlash uchun sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasini amalga oshirish.

Muammoning tarbiyaviy-nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, maktabdan va sinfdan tashqari olib boriladigan musiqa to'garaklari o'quvchilarni tarbiyalashda dolzarb pedagogik muammo sifatida e'tirof etiladi. Mazkur muammo uzviy va doimiy ravishda davom etadigan jarayondir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
2. Mirziyoyev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va

xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016 y.

3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagog texnologiya asoslari. Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil.
5. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. Toshkent "Fan" 2006 yil.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Mehruzalar matni. Toshkent FTDK, DITAF 2000 YIL.
7. Mavlyanova, To'raeva O., Xolikberdiev K. Pedagogika. Toshkent "O'qituvchi" 2001 yil.
8. Nurmatov X., Norxo'jaev N.. Musiq 2- sinf. T.G'. G'ulom.
9. Nurmatov X., Norxo'jaev N.. Musiq 3- sinf. T.G'. G'ulom.
10. Ibragimov O., Ibragimov J.. Musiq 4-sinf. T.G'.G'ulom, 2003 yil.
11. Mansurov A., Karimova D.. Musika 5-sinf. T. G'. G'ulom 2003 yil.